

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.E.Madaliyev	
Talabalarda axboriy-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	115
N.R.Mansurova	
Zamonaviy oliy ta'lilda musiqiy aksiologik yondashuvdan foydalanishning pedagogik asoslari	120
M.M.Maxamadjonova	
Oliy ta'lim talabalarida mediasavodxonlikni shakllantirishning pedagogik ahamiyati.....	129
I.I.Soliyev	
Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari boshqaruviga xalqaro standartlarni joriy qilish metodologiyasi	132
D.D.Mirzaakbarov	
Koreys tilini mustaqil o'rghanishdagi muammolar va ularni bartaraf qilishda zamonaviy texnikaning ro'li	136
A.Y.Axmedov	
Kommunikativ kompetentsiya bo'lajak psixoglarning kasbiy rivojlanishining hal qiluvchi omili sifatida	141
N.B.Dusimbetova	
Jurnalistika yo'nalishi talabalar kompetensiyasi: ko'nikma va bilimlarning ahamiyati	146
S.T.Aldasheva	
Mediata'lim vositasida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	151
A.T.Nazarov	
Yangi O'zbekistonda bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini sport turizmiga doir bilimlarini rivojlantirish holati tahlili.....	154
U.K.Rahmonov	
Bo'lajak tarbiyachilarining estetik kompetentligini rivojlantirishning pedagogik bosqichlari va komponentlari.....	158
A.R.Saydullayeva	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni rivojlantirishning pedagogik mohiyati va psixologik asoslari.....	162
U.Sh.Abduraximova	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirish modeli.	168
S.A.Mahmudova	
Bo'lajak pedagoglarning ijtimoiy-kreativ kompetentlik darajasini aniqlashda psixodiagnostik yondashuv va tamoyillardan foydalanish.....	172
J.O.Amirov	
Yosh futbolchilarni koordinatsion qobilyatlarini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	176
G.T.Xusanova	
Boshlang'ich sinflarda zid ma'noli so'zlar ustida ishlash usullari.....	180
X.O.Pardayeva	
Kredit- modul ta'lim tizimi jahon tajribasi	184
M.Barakayev, M.Nasritdinov	
Ta'limi raqamlashtirish shatroitida o'quvchi-talabalarni nochiziqli fikrlashga o'rgatish imkoniyatlari.....	191
Sh.O.Aripov	
O'g'il bola tarbiyasi va oilaviy munosabatlarni rivojlanish tendensiylarining tarixi.....	195
M.M.Mirzakarimova, M.D.Uzoqjonova	
Ekologik ta'lim-tarbiyani takomilashtirish omillari	200
D.T.Nishonova	
Jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzini shakllantirish yo'llari.....	205
S.T.Xakimov, Sh.Xudoyqulov	
Gimnastika maxsus mashqlari orqali o'quvchilarining jismoniy sifatlarini rivojlanishini kompleks nazorat qilish	213
X.X.Abdurahmov	
Yengil atletika mashg'ulotlarida jismoniy sifatlarini rivojlantirish.....	218
M.M.Turg'unov	
Aksiologik yondashuv asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasi	223



УО'К: 373.3.091(571.1)+811

**TALABALARDA AXBORIY-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**
(ingliz tili yo'nalishi misolida)

**ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-
АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СТУДЕНТОВ**
(на примере курса английского языка)

**PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF INFORMATION-
ANALYTICAL COMPETENCE OF STUDENTS**
(in the example of the English language course)

Madaliyev Baxtiyorjon Egamberdi o'g'li 

Farg'ona davlat universiteti ta'lif va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi tayanch doktoranti

Annotatsiya

Maqolada til o'rgatish sohasida kompetentsiya va kasbiy mahoratning hal qiluvchi roli ko'rib chiqilib, o'qituvchilar nafaqat o'zi o'rgatadigan til bo'yicha malakali bo'lishlari, balki pedagogik qobiliyatlarga ham ega bo'lishlari zarurligini ko'rsatiladi. Bu ilg'or texnologiyalar va metodikalarning ta'lif, xususan, til o'rganish sohasidagi ahamiyati ortib borayotganini, kompetentsiya va professionallik tushunchalari farqlari, belgilangan standartlarga javob berishi bilim va ko'nikmalarni to'liq qo'llashni kafolatlamasligi ta'kidlanadi. Asosiy e'tibor axborot-tahvilij kompetentsiyaning ahamiyatiga, xususan, til o'rgatishda va o'qituvchilarning axborotni samarali tahlil qilish zarurligiga qaratiladi. Tinglab tushunishga e'tibor qaratgan holda til o'rganishning turli usullari o'rganiladi. Maqolada, shuningdek, kompetentsiyaning umumiy ko'rinishi va turli xil turlari ko'rsatilgan.

Abstract

The article examines the decisive role of competence and professional skills in the field of language teaching, and shows the need for teachers not only to be competent in the language they teach, but also to have pedagogical skills. It is emphasized that the importance of advanced technologies and methods in the field of education, especially in language learning, is increasing, the differences in the concepts of competence and professionalism, meeting the established standards do not guarantee the full application of knowledge and skills. Emphasis is placed on the importance of information-analytical competence, particularly in language teaching, and the need for teachers to effectively analyze information. Various methods of language learning are explored with an emphasis on listening comprehension. The article also provides an overview and different types of competence.

Аннотация

В статье рассматривается определяющая роль компетентности и профессиональных навыков в сфере преподавания языка, а также показана необходимость для учителя не только владеть языком, который он преподает, но и обладать педагогическим мастерством. Подчеркивается, что значение передовых технологий и методов в сфере образования, особенно в изучении языков, возрастает, различия в понятиях компетентности и профессионализма, соответствующие установленным стандартам, не гарантируют полного применения знаний и умений. Акцент делается на важности информационно-аналитической компетентности, особенно при обучении языку, а также на необходимости эффективного анализа информации преподавателями. Рассматриваются различные методы изучения языка с упором на понимание на слух. В статье также дан обзор и различные виды компетентности.

Kalit so'zlar: Kompetentsiya, kasbiy mahorat, til o'rgatish, pedagogik mahorat, ilg'or texnologiyalar, axborot-tahvilij kompetentsiya, til o'rganish usullari, tinglab tushunish, kompetentsiya turlari.

Ключевые слова: Компетенция, профессиональные навыки, обучение языку, педагогическое мастерство, передовые технологии, информационно-аналитическая компетентность, методы изучения языка, понимание на слух, виды компетентности.

Key words: Competence, professional skills, language teaching, pedagogical skills, advanced technologies, information-analytical competence, language learning methods, listening comprehension, types of competence.

KIRISH

Dunyo bo'ylab zamonaviy ta'lim tizimi oldida ishga layoqatli, umummilliyl qadriyatlarni tushuna oladigan va ularni o'quvchilarga to'g'ri yetkazib bera oladigan, ko'nikmalarni shakllantirishda o'quvchilarga yordam bera oladigan kadrlarni tayyorlash vazifasi turibdi. Bu vazifani bajarish uchun, avvalo, o'qituvchilar kompetentlik hamda o'zлari shug'ullanadigan sohadagi ko'nikma kompetensiyasi nima ekanligi haqidagi tushunchaga ega bo'lishlari juda muhimdir. Bundan tashqari ta'lim jarayonlarida o'qitishni rivojlanib borayotgan texlonogiyalar yordamida ilg'or metodika va texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim berish, ayniqsa, hozirga kunda ustuvor masalalardan biriga aylanib ulgurgan til o'rganish sohasida juda muhimdir. Jahonda xorijiy tillarni o'itishda o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirishga, vaziyatga yorqin baho berish orqali o'quvchi uchun maqbul uslub va ta'lim texnologiyasini qo'llay olishiga, ushbu tajribalarni o'zlashtirish barobarida qo'llash kompetentligini oshirishga ham katta e'tibor qaratiladi. Ayni vaqtida yurtimizdag'i ta'limga, xususan, xorijiy tillarni o'zlashtirish borasida ushbu xorij metodologiyasini o'zlashtirish hamda til o'rganishdagi strategiyalarni muvofiqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi ta'lim jarayonida foydalananadigan axborot o'quvchi uchun e'tiborga molik bo'lishi bilan birgalikda o'sha zamon talab darajasidan tashqarida bo'lmasligi ham muhim. Ayniqsa ingliz tili o'rgatishda axborot tahlili amaliy jihatdan ham komponentlik talab qiladi. Tillarni tez o'rganishda axboriy-analitik kompetentlik pedagogini nafaqat e'tiborli, balkim intizomli bo'lishini, axborotga jiddiy e'tibor bilan yondashishi lozimligini ham ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi minbarida turib: "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimizning qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarmizning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virus"i tarqalishining oldini olishdir", – deya aytgan ezgu gaplari mazmunidan yosh avlodning mustaqil tafakkurini, analitik fikr yuritish layoqatini rivojlanirish biror mamlakatning xususiy tashvishi bo'lmay, dunyo xalqlari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri ekani anglashiladi. [8]

Aynan shuning o'ziyoq bugungi kunda bo'lajak pedagoglarga qo'yilgan talablarning qanchalik baland ekani va ularning analitik kompetensiyalari hozirgi kundagi ta'limda qanchalik muhim o'r'in egallashlarini ko'rsatib turibdi.

Shu o'rinda kompetensiya va kompetentlik tushunchalari o'rtasidagi o'xshashlik va tafovut masalasi yuzaga chiqadi, aslan bu ikki tushuncha o'qituvchilaro'rtasida ham ba'zan adashmovchiliklarga sabab bo'ladi. [14]

Kompetensiya ([lotincha](#): compete-erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan [davlat](#) organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning [qonun](#), [ustav](#) yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, [huquq](#) va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajribadir.

Kompetentlik esa xususiy ma'noga ega bo'lib o'sha kadrning qila olish imkoniyati jihatni bilan bog'liq bo'ladi.

Kompetensiyalar ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud:

- Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarini namoyish etadi.

- Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'riladi[5].

Vazirlar Maqkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sod qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflangan[13].

Vazifalarni to'g'ri bajarish uchun o'qituvchi kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini bilishi, har tomonlama rivojlanishi va kasbiy jihatdan o'sishi uchun qaysi yo'nalishda harakat qilish kerakligini tushunishi kerak.

Ushbu tematikada xorijlik olimlardan G.Atkinson, S.Dawn, Jon Lackie, Y.Masuda, Stamp Mark, M.Unland, Holkner Bernard kabilar talabalardagi tadqiqotlarida axboriy-analitik ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tadqiq etganlar. [2]

PEDAGOGIKA

Mamlakatimizda ta'lim oluvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish ko'nikmalarini tarkib toptirish M.Abdujabborova, A.Aripjanova, U.Begimqulov, U.Yoziyeva, A.Ismanova, B.Xodjayev, M.Quronov, Z.Qosimova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. [2]

Talabalarda axboriy-analitik ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan bo'lsada, aynan, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida axboriy-analitik kompetentlikni shakllantirish texnologiyalari masalasi maxsus tadqiq etilmagan. Yuqoridagi adabiyotlardagi fikrlar yordamida kompetentlik xususidagi fikrlardan tushunishimiz mumkinki, axboriy analitik kompetentlikni rivojlantirish bugungi kun pedagogikasida va ta'lim jarayotlarida muhim o'rinn egallaydi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Professionallik hamda kompetentlik tushunchalari bir xil tushunilgani bilan aslida bir ma'noni bildirmaydi. Sababi, belgilangan standartlarga to'la mos keladigan kadrlar hamma holatda ham o'z bilim va ko'nikmalarini to'liq va aniq holatda qo'llay oladi, degani emas. Ushbu o'rinda pedagogik texnologiya yoki o'sha o'qituvchining pedagogik imkoniyatlari ko'proq ahamiyatga ega bo'lib qoladi. [4]

Axboriy-analitik kompetensiya axborotni qo'llashdan avval tahlil eta olish hamda uni qanday usulda samarali qo'llay olish imkoniyatiga ega bo'lishini ifodalaydi. Aynan til o'rgatish sohasida bo'lajak o'qituvchilar o'z o'quvchilari uchun axborotni tahlil etishlari zarurdir. Lekin, bu natijaga bo'lgan dastlabki qadam hisoblanadi. Til o'rganish usullaridan biri - zamonaviy interaktiv usul sanaladi. Bunda o'quvchi dars jarayonida doskaga yozish, ma'lum bir o'yinlar, harakatlar yordamida o'tilayotgan grammatik mavzuni tushunishlari mumkin bo'ladi. Fonetik usulda esa asosiy urg'u tinglash va shu asosda tovushlarni shunday uslubda aksentsiz chiqarish imkoniyatlarini tushunish mumkin. O'qib tushunish usulida talabalarga axborot matn orqali beriladi va talabalardan berilgan matnni o'qib tushunishlar va qayta aytib berishlari yoki matn bo'yicha topshiriqlarni yechishlari so'raladi. Til o'rganishdagi yana bir eng muhim usul bu tinglab tushunishdir. Sababi til, odatda, ma'lumot olish yoki muloqot uchun organiziladi. Axborot esa ikki xil usulda, tinglash yoki o'qish orqali olinadi. Tildan biz odatda suhbatlashish uchun foydalanishimizni hisobga olsak, tinglab tushuna olish til bilishning eng asosiy qismi sifatida ko'rindi. Tinglab tushunishni G.V.Rogova [14] uch qismga bo'lib ko'rsatadi:

1. Lingvistik qism. Bunga til va nutq materiali kiradi.
2. Psixologik qism. Bunga ovozni tinglash, tushunish malakasi va ko'nikmasini hosil qilish kiradi.

3. Metodik qism. Tinglovchilarga tinglash usullarini o'rgatish hamda tinglab tushunish texnologiyasi orqali qonun-qoida, tamoyillar, metodlar, vositalar orqali o'rgatish amalga oshiriladi. O'qitish jarayonida tinglab tushunish ustida ishlaganda, kundalik yangiliklar, tili o'rganilayotgan mamlakat xalqlari hayoti, madaniyati, tarixi haqida matnlarning bo'lishi tinglovchilarning qiziqishlarini yanada orttiradi.

Mana shu jihatdan agar o'qituvchi material tanlash jarayonida axborot tahlili kompetensiyasiga ega bo'lsa, talabalarning tinglab tushunish va o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun to'g'ri va foydali axborot tanlay oladi hamda dars mashg'uloti davomida to'g'ri uslubda foydalana oladi.

Har bir pedagog kompetensiya tushunchasini tushunishi va o'z holatida qanday qilib kompetentligini oshirish masalasini chuqur idrok etmog'i juda ham muhimdir. Bunda, kasbiy pedagogik kompetensiyalarini alohida turlarga ajratish ham muhim bo'lib qoladi:

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq.

- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan.

- Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtini boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir. [14]

Ushbu maqolada keltirilayotgan keysda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kompetentligini shakllantirishdagi eng muhim narsa bu kasbiy kompetentlikdir. Vaqt o'tgani sari amaliyotda olinadigan ko'nikmalar keyinchalik boshlang'ich kompetensiyani to'ldirib boradi. [1]

Agar ushbu keysni formulaga soladigan bo'lsak ushbu ko'rinishda bo'ladi:

Kompetentlik = Bilaman + Qila olaman + Istayman + Men qilaman.

Bo'lajak til o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishlari bosqichma-bosqich va doimiy shaklda amalga oshirilishi mumkin.

1. Maxsus ma'lumot olish. Bunda ular dars uchun axboriy material tayyorlash (Material generating) yoki axboriy-analitika (material analisys) kabi kurslarni o'rganishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Amaliy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish. Olingan bilimlarni kompetensiyaga aylanishi yo'lida tadqiq etish, talabalar bilan ishlab ko'nikma hosil qilish, men qila olaman bosqichiga qadar yetib olish.

3. Kasbiy treningdan foydalanish. Til o'rganish doimiy o'zgarishga uchrayotgan soha ekanligi sabab yangi treninglar yordamida egallangan bilimlarni o'stirib, ularni ko'nikmaga aylantirish yo'lida maslahatlar olish. [5]

Ta'lif muassasasi ham, shu o'rinda, o'qituvchilarning kompetentligini yuksaltirishlari va ularni doimiy ta'lif berish yo'llarini yuksaltirishlariga yo'naltirishlari kerak. Bunda agarida til o'rgatuvchi ustozlarning darslari yoki ushbu darslardagi natijalar yuqori bo'lmasa, ularni maxsus treninglarga, pedagog kurslariga yoki malaka oshirish bilim yurtlariga yuborishlari muhimdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bolajak ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlashdan hozirdanoq ularga kompetensiya va pedagogik ko'nikmalar haqidagi fikrlarni tushuntirib, ularni o'z kasbi kompetensiyalari haqidagi fikrlar va shu vaqtgacha olib borishgan ishlar bilan tanishtirib borish muhimdir.

Axborot-analitik kompetensianing ahamiyati, ayniqsa, ma'lumotlarni tahlil qilish va undan samarali foydalanish muhim bo'lgan til o'rgatishda ko'rindi. Maqolada ta'kidlanganidek til o'rganishning turli usullari o'ganilib, tinglab tushunishning ahamiyati yuqoridir. O'quvchilar uchun tegishli materialarni tanlash va ularni o'quv jarayoniga kiritishda o'qituvchilarning kompetensiyasi baland bo'lishi zarurdir.

Kompetensiya tushunchasi umuman olganda maxsus, amaliy va kasbiy pedagogik kompetensiyalarga bo'linadi. Yuqorida keltirilganidek, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida kasbiy kompetensiyani shakllantirish ma'lumot olish, amaliy bilim va ko'nikmalarni egallah va doimiy kasbiy tayyorgarlikni o'z ichiga olgan uzluksiz jarayondir.

"Kompetensiya = bilaman + men qila olaman + xohlayman + qilaman" formulasi kompetensianing ko'p qirrali xususiyatini qamrab oladi. Maqola kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga bosqichma-bosqich yondashuvni ko'rsatib, til o'qitishning dinamik sohasida uzluksiz o'rganish va moslashishga urg'u berib o'tadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdullaeva Marhabo Raxmonkulovna. (2021). Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima yaratishi va o'ziga xos xususiyatda. Innovation, integration va ta'lif bo'yicha xalqaro ma'lumot jurnali, 2 (2), 297-306.
2. Baydjanov, B. X. (2023). Bo'lajak o'qituvchilarini o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi. Ilmiy xabarlar. 1, 42-47
3. Farberman B.L., Musina R.T., Jumaboyeva F.A. Modern methods of teaching in higher education. - T., 2002.
4. Jabborova Onaxon Mannopovna, & Ismoilova Dilafruz Muhiddinovna. (2020, May). Optimization of primary education. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1229-1232.
5. Jabborova Onaxon Mannopovna, Jumanova Fatima Uralovna, & Mahkamova Shohida Rahmatullayevna. (2020). Formation of Artistic Perception of Future Teachers. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 4087-4095.
6. Kh K. R., Shukurov R. S., Samadov S. S. The Inquiry On The Changes Of Relations Towards The Basics Of The Culture Of Healthy Life In The Students Of Elective Courses // International Journal of Progressive Sciences and Technologies. - 2021. - T. 25. - №. 2. - r. 112-118
7. Mamadaliev, K. R., Jabborova, O. M., Umarova, Z. A., & Abdullayeva, B. P. (2020). Creation of a New Generation of Teaching Literature-A Requirement of Modernity. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24, 612-619.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi, 2017-yil 19-sentabr.

PEDAGOGIKA

9. Saydakhmetova, D. (2020). Teaching Russian as a Foreign Language Through Stories. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 8(5), 75-78.
10. Sergeyeva, E. (2020). Artistic Identity of L. Solovyov's Novel "The Tale of Khodzha Nasreddin". *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 8(6).
11. Tojiboeva, G. R. (2020). The Training Improve Future Elementary School Teachers. *The Way of Science*, 1(71), 80-82.
12. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Educational technologies. - T.: Teacher, 2002.
13. Umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-qunar ta'liming davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'qrisida O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2017 yil 6 aprel, 187-son.
14. Тожибоева, Г. Р. (2020). Психолого-педагогическая компетентность учителя начальных классов. *Science and World*, 1(77), 32-33. Avlaev Orif Umirovich, & Abdujalilova Shoirah Abdumajitovna. (2020). The Role of Social Intelligence in Personality Maturity. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(4), 3983-3991.